

Yaqinda poytaxtimizda o'tkazilgan 64 va 100 katakli shashka bo'yicha Osiyo chempionatida qit'amizning yigirmaga yaqin davlatidan 250 nafardan ziyod sportchi g'oliblik uchun bahslashdi.

Unda Sirdaryo viloyati, Sayxunobod tumanidan Laziz Muraliyev blits, rapid va klassik yo'nalishlarida uchtdan oltin va kumush medalni qo'lga kiritdi. E'tiborlisi, Lazizbek hali maktabga bormagan, yetti yoshda.

Xotin-qizlar o'rtasida umidli sportchimiz, to'qqiz karra Osiyo chempioni, Sayxunobod tumanidagi 29-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Shahzoda Tursunmurodovaga teng keladigan raqib topilmadi. U barcha

yo'nalishlarda to'rtta oltin, bittadan kumush va bronza medal bilan taqdirlangan bo'lsa, uning maktabdoshi, 7-sinf o'quvchisi Vasiya Berdiqulova ham 4 ta oltin va bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Shu tariqa, chempionatda hamyurtlarimiz jami 34 ta oltin, 27 ta kumush, 24 ta bronza medalni qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi.



Tong yulduzi

**Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!**

**N:19 (67028)
2015-yil
11-may**

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqra boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

BIZ — BUYUK YURT FARZANDLARIMIZ

Respublika «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan tashkillashtirilgan keng qamrovli ushbu festivalda «Iqtidor egasi – obod yurt ertasi», «Odam savdosi – davr muammosi», «Vatan taraqqiyotiga mening hissam», «Biz sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz», «Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmasin!», «Ommaviy madaniyat va yoshlar ma'naviyati» mavzulariga oid davra suhbatlari o'tkazildi.

Anjumanda Toshkent shahridan

Ayni kunlarda barcha viloyatlarda «Biz – buyuk yurt farzandlarimiz» shiori ostida o'tkazilayotgan festival Navoiy viloyatida ham bo'lib o'tdi.

tashrif buyurgan shoir va yozuvchilar, olimlar, san'atkorlar viloyatning barcha tumanlaridagi akademik litsey, kollej, umumta'lim maktablari o'quvchilari ishtirokida qiziqarli uchrashuvlar uyushtirishdi.

Tadbirlarda ishtirok etgan ijodkorlar yoshlarimizning fikri bilan o'rtoqlashib, o'zlarining hayotiy tajribalariga doir maslahatlar berishdi. To'rt kun davom etgan anjuman yoshlarimizga cheksiz quvunch baxsh etganidan qalbimiz faxr-iftixorga to'ldi. Yurtboshimizning: «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart!», degan so'zlari joylarda o'z hosilini berayotganiga amin bo'ldik. Mazkur festivaldan olgan bir olam taassurotlar

bilan borliqqa nigoz solganimizda, ko'z oldimizda dunyo ahlini hayratlantirgan buyuk bobokalonlarimiz jonlandi.

Navoiy viloyatining cheksiz dasht-u dalalaridan taralayotgan dilxush kuy ohanglaridan sarxush bo'lib, kelajagi porloq yoshlarimizning nurli kunlariga havasimiz keldi.

AXTAMQULI



Jizzax viloyatining Arnasoy tumanidagi 22-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida «Xorijiy tillar» fani oyligi doirasida ingliz va koreys tillari bo'yicha to'garak a'zolari tomonidan «Biz xorijiy tillarni o'rganamiz» mavzusida tadbir bo'lib o'tdi.

5-bet



Jasorat, burch, matonat

XOTIRA – MUQADDAS

Uch ming nafardan ortiq o'quvchi tahsil oladigan ushbu maktabda iste'fodagi polkovnik Erkin Talbabayev rahbarlik qilayotgan «Jasorat» vatanparvarlar to'garagi faoliyat ko'rsatmoqda. Unda tuman umumta'lim maktablari o'quvchilari harbiy bilim asoslarining 8 ta yo'nalishi bo'yicha shug'ullanib kelmoqdalar.

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300- ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'qituvchisi Shohida Safarboyeva uyushtirgan, 4 - «D» sinf o'quvchilari ishtirokidagi kecha «Xotira – muqaddas!» deb nomlandi.

Maktabning majlislar zali bayramona bezatilgan. Sahnadagi milliy liboslarda, boshiga do'ppi kiygan qizaloqlar, bellariga shohi qiyiqcha bog'lagan, chust do'ppili bolalarni



ko'rib, tadbirga tashrif buyurgan urush qatnashchilari, mehnat faxriylari, ota-onalar ko'zlarida quvonch porladi.

Shahar miqyosida o'tkazilgan badiiy o'qish musobaqasining 1-o'rin sohibasi Zaynabegim G'aybullayeva tomonidan ijro etilgan she'r, monologlar barcha qatnashchilarga manzur bo'ldi. Shuningdek, Rixsitilla Mamadaliyev, Hojiakbar Mamatxo'jayev, Shahnoza Qulmamatova, Otabek Sultonazarov, Dilnoza Shokirova kabi o'quvchilarning ular qalamiga mansub she'rlarni ifodali o'qishdi.

Bayram tadbirini tayyorlashda musiqa o'qituvchisi Mehridin Meliyev, raqslarni sahnalashtirgan Malika Alimuhammedovanning xizmatlari katta bo'ldi.

Dilorom HOTAMOVA



«Soliq nima?», «Soliq to'lovchi kim?», «Soliq to'lashdan maqsad nima?»,... Bu kabi savollarga javob topish bugungi kun o'quvchisiga mushkullik tug'dirmaydi. Sababi, mazkur tushunchalar umumta'lim maktablarida iqtisodiy bilim asoslari fani orqali chuqur o'rganiladi. Shuningdek, yurtimizda har yili o'tkazilishi an'anaga aylangan «Soliq bilimlari - bolalarga» ko'rik-tanlovi o'quvchilarda soliq savodxonligining oshishida ahamiyati katta.

«SOLIQ BILIMLARI – BOLALARGA – 2015»

Kuni kecha Toshkent soliq kollejida mazkur tanlovning respublika yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi. «Soliq mavzusining suratlardagi tasviri», «Soliq mavzusining hikoyalarda aks ettirilishi», «O'zbekiston Respublikasida soliq siyosati» mavzusidagi eng yaxshi insho, «Soliqlar nimalarga to'lanadi va nimalarga sarflanadi?» mavzusidagi eng yaxshi kompyuter taqdimoti nominatsiyalari bo'yicha o'tkazilgan ushbu tanlov 1 – 4- hamda 5 – 6-sinflar akademik litsey va kasb-hunar kollejlari kesimida o'tkazildi.

F. ABDUSAMAD qizi



Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi 72-IDUM muallimasi Dilobar SAFAROVA soliq va sug'urtaga oid mavzularni o'qitishda soha mutaxassisleri tajribalaridan unumli foydalanadi.



– O'quvchilarning soliq haqidagi tushunchalarini mustahkamlashning eng yaxshi usuli darslarni o'yin asosida tashkillashtirishdir, – deydi Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 8-IDUMI o'qituvchisi Yodgor AZIMOV.

S OZLARNING EHRLI ADOSI

Yaqinda poytaxtimizdagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyida «San'at g'unchalari» yosh musiqachilar ko'rik-tanlovining respublika bosqichi bo'lib o'tdi.

9-16 yoshli bolalar ishtirokidagi mazkur tanlovda yosh sozandalar 11 yo'nalishda: fleyta, klarnet, saksofon-tenor, goboy, saksofon-alt, truba, fagot, bariton, valturna, trombon, tuba cholg'u asboblari jahon va milliy mumtoz kuylarini ijro etishdi.

Hay'at a'zolari yosh musiqachilarning



B. HALIMOV olgan surat

chiqishlarini baholar ekan, S.Yudakovning «Jon O'zbekiston», Shubertning «Barkarola», T.Toshmatovning «Fasli bahor» va A.Muhammedovning «Shohi so'zana» asarlari o'quvchilar tomonidan mukammal darajada ijro etilganini alohida ta'kidlashdi. Ahamiyatlisi, Andijon shahridagi 7-bolalar musiqa va san'at maktabi vakillaridan 5 nafari, ya'ni Davronbek Husanov klarnet yo'nalishi bo'yicha, Faxriddin Odilov urma, Ruslan Hasanxo'jayev saksofon, Mirzobek Mirzajonov bariton hamda Nasibullo Habibullayev valturna yo'nalishi bo'yicha faxrlri o'rinlarni egallashdi.

«Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi, Xalq ta'limi vazirligi va «Bastakorlar uyushmasi» hamkorligida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan tanlovda bu yil 150 nafar o'quvchi-yoshlar o'z mahoratlarini namoyish etishdi.

NURBEK

QIZIQARLI MATEMATIKA

Endi o'quvchilar fanni oson o'zlashtirishadi

Fanlar shohi matematika hayotda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har qadamda hisob-kitobga duch kelamiz. Shu bois, bu fanni chuqur bilishimiz talab etiladi. Ushbu fandan o'tiladigan mavzular o'quvchiga oson bo'lishi uchun turli o'yinlardan foydalanish mavzuni tez o'zlashtirishga, uni yaxshi tushunib, yodda saqlab qolishga yordam beradi.

Matematika darslarida yozma viktorinalarni o'tkazishda har bir parta uchun raqamlangan varaqqa misol yoziladi. Topshiriqlarning bajarilish muddati, to'g'ri yoki noto'g'riligiga qarab qatorlarga o'rin beriladi.

Har bir guruh misollarining javobi yozilib, aralashtirib qo'yiladi. Musobaqa ishtirokchisi javoblardan to'g'risini tanlab, tegishli javobni misol yoniga yopishtirib qo'yadi (bunda magnit doskasidan foydalaniladi). Qaysi guruh oldin, to'g'ri bajarsa, o'sha guruh g'olib hisoblanadi.

Yangi mavzuga doir misollar yechish davomida qiziqarli masalalardan misol keltirish mumkin. 8-sinfda kvadrat tenglamani o'tganda, quyidagi masalani olish mumkin:

Ikki gala bulbullar,
Chah-chahlashib sayrashar.
Nimchoragin kvadrati,
Samo uzra yayrashar.
O'n ikkisi shodlanib,
Gulzorga qo'nyotir.
Nechta ekan bulbullar,
Qani, Bahrom, bosh qotir?

Xuddi shunday

matematik
o'yinlardan ham
foydalanish mumkin.

Masalan, 6-sinfda
bo'luvchilar va karallilar
mavzusi o'tilganda, «Top»

o'yinidan foydalanish
mumkin. 5 nafar o'quvchi doskaga

chaqiriladi. Ular navbati bilan sanaydilar, masalan, 3 ga karalli sonlar o'rniga «Top» so'zini ishlatadilar, kim sonning o'zini aytasa, o'yindan chiqadi. Oxirida qolgan g'olib hisoblanadi.

O'quv yili oxirida o'tilganlarni mustahkamlash maqsadida, savol-javob musobaqasini (takrorlash darslarida) o'tkazish mumkin. Bunda 5 nafardan o'quvchi doskaga chaqirilib, ta'rif, teorema, aksioma, formula aytish sharti qo'yiladi. Biri aytgan fikrni boshqasi takrorlamasligi lozim, xato qilgan yoki kechikkan o'yindan chiqadi. Oxirida qolgan g'olib hisoblanadi.

Zulfiya SOBIROVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
51-umumta'lim maktabi o'qituvchisi.
Dilbar IBODOVA

USTOZDAN MINNATDORMIZ

Biz 1-sinfдан ingliz tilini chuqur o'rganmoqdamiz. Ustozimiz Lilya Jalilova bizni chet tili xonasiga olib kirganlarida rosa quvondik.

Chiroyli suratlarini, texnika vositalari bilan jihozlangan lingofon xonasi bilan tanishtirib, darsimiz shu joyda olib borilishini aytdi. Endilikda, ingliz tilida hafta kunlarini, sinfimiz, oilamiz haqidagi ma'lumotlarni ayta olamiz, she'rlar yodlaganmiz. Darsda sinfdoshlarim Baxtiyor Bahodirov, Muhammad G'ulomov, Muxlisa Mahkamovalar bilan bu tilda dialoglar tuza olamiz. Lilya opa bizlarga xorijiy tilda magnitofon orqali she'rt, ertaklar eshittiradilar.

Men kelajakda shifokor bo'lmog'chimman. Ota-onam orzumga erishishimda hamma fanlarni chuqur o'zlashtirib borishim bilan bir qatorda, ingliz tilini mukammal egallashim zarurligini doimo uqtirishadi.

Azamatxo'ja ABDULLAXO'JAYEV,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi
10-umumta'lim maktabining 2-«A» sinf o'quvchisi



Salim bobo ichkari uydan chiqib, ayvonchada biroz o'tirdi. Xuddi shu chog' hovlidagi chaman bo'lib ochilgan atirgullarni uzishga oshiqayotgan 5 yoshli nabirasi G'anijonga ko'zi tushdi.

TABIAT QONUNI

— G'anijon gulni uzma, qara, qanday chiroyli-ya, ko'rganlar xursand bo'ladi. Ammo nabira bobosining gapiga quloq solmay, baribir gulni uzmoqchi bo'lgan edi, uning tikani qo'lini timdaladi.

G'anijonning bundan jahli chiqdi:

— Bu gul menga yoqmadi, agar tikani bo'lmaganda edi...

Bunga javoban bobosi muloyim jilmaydi:

— Bu tabiat qonuni. Tikani unga nega kerak ekanligini bilmasmiding?

G'anijon boshini xam qilgancha, avvalgidek yugurib

emas, asta-sekinlik bilan ko'cha eshik tomon

borardi. Darvoza yoniga yetganida, ortiga

qaradi-da:

— Bobojon, endi hech ham gullarni

uzmayman. Ularni men ham

yaxshi ko'raman, — dedi ko'zlari

chaqnab.

Zulfiya TO'RABOYEVA,
Namangan viloyati,
Yangiqo'rg'on tumanidagi
6-umumta'lim maktabi
o'quvchisi



KEKSALARNING BEBAH O'GITI

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasining jonkuyar ijodkorlari! Men sinf sardoriman. Oilamiz dadam, o'yim, men va singlimdan iborat. Bizga ota-onamiz doimo keksalarni e'zozlash kerakligini, ularni e'zozlaganlar kam bo'lmashligini uqtirib borishadi. Shu bois, tez-tez bobom, buvim holidan xabar olib kelamiz.

Shuningdek, sinf rahbarimiz Sayyora Xurramova bilan «Xotira va qadrlash kuni» arafasida mahallamiz nuroniylaridan Qo'ldosh ota, Xudoynazar ota, O'lmas Hoji, Qurbon bobolarni va Oybahor aya, Nazira aya, Sofiya momolarni borib ko'rdik. Ular xursand bo'lib, bizni duo qilishdi va ko'plab maqol, rivoyat, hikoyatlarni aytib berishdi.

Suhrob TO'RABOYEV,
Surxondaryo viloyati, Qiziriq tumanidagi
1-umumta'lim maktabi o'quvchisi

QAYSI KASBNI TANLASAM EKAN?

Mana, yana tong otmoqda. Quyosh asta tog'lar ortidan bosh ko'tardi. Uning iltiq, hayotbaxsh nurlari bog'da sirli xonish qilayotgan bulbullar-u, purviqor tog'larga ko'rk bag'ishlayotgan qip-qizil lolalarga, to'lib-toshib oqayotgan zilol suvga o'zgacha kayfiyat bag'ishlaydi.

Ana shunday kunlarning birida maktabimizda «Qiz bolaning kasbi — uning faxri» shiori ostida tadbir bo'lib o'tdi. Unda ustozimiz Fazilat Orziqulova qizlarning xulq-atvori, bilimlari, o'zaro munosabatlari haqida to'xtaldi. Shuningdek, «Men tanlagan kasb» mavzusida o'tkazilgan insholar tanlovi g'olibi 9-«A» sinf o'quvchisi Madina Rustamova kasb haqidagi fikrlari bilan o'rtoqlashdi.

Yuqori sinf o'quvchilarining ko'pchiligi kasbni tanlash haqida uzoq o'yga toladi. Tanlagan kasbi butun hayoti davomida yo'ldosh bo'lib, orzular shahriga eltishini xayolidan o'tkazadi. Bunday paytda yaqinlarimiz bo'lgan ota-onamiz, ustozlarimizning yordami qo'l keladi. Zero, ularning maslahati bizning hayotimizni yoritib turadigan mayoq desak aslo yanglishmagan bo'lamiz.

Sitora NAPASOVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi
12-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

Muslimaxon bilan Gulhayo qo'shni mahallada yashashadi. Muslimaxonning dugonasiga juda-juda havasi keladi. Chunki Gulhayoning mehribon, jondan aziz bobojoni bor-da. Mahalladoshlari u kishini «Duosi ijobat odam», deb maqtaydilar.

ORZUSI USHALDI

Bugun Gulhayoning:

– Dugonajon, kechki payt biznikiga borgin, birga dars tayyorlab inshoni tugatib olamiz, – degan taklifi Muslimaxonni quvontirib yubordi. Bir zumda, misoli oqqushga aylanib, samoda parvoz qila boshladi. Chunki anchadan buyon bu ulug' inson bilan uchrashishni orziqib kutardi-da! Nihoyat, niyatiga yetadigan bo'ldi...

Qizlar darslarni tayyorlab bo'lgach, onasi: – O'tog'ing bilan bobongning idishlarini yig'ishtirib, yuvib qo'yinglar, deya tayinladi. Bu gapdan Muslimaxonning boshi ko'kka yetdi.

Ikki dugona xonaga salom berib kirishganida to'ra nuroniy otaxon o'tirar edi. – Kelinglar qizlarim, kelinglar, – deya shirin kalom bilan ularni qarshi oldi bobo. – Bobojon, idishlaringizni yig'ishtirib olaveraylikmi? – deya so'radi Gulhayo. – Yuviy bo'yasizlarmi, mayli qizim, mayli, – deya otaxon qo'llarini duoga ochdi. Muslimaxonning ma'suma ko'nglidagi musaffo orzulari ro'yobga chiqdi. Chunki u hamma havas qiladigan nuroniy otaxondan duo olgan edi-da.

Tursunali YUSUPOV,

Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi 33-umumta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi

KIMYONING MO'JIZAVIY OLAMI

Islomjon Vohidov, Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi 11-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi. U bolaligidan o'zining qiziquvchanligi va ziyrakligi bilan tengdoshlaridan ajralib turardi.



A. HAMIDULLAYEV olgan surat

Islomjon ingliz tili, biologiya, kimyo fanlariga alohida mehr qo'yg'an. Dars davomida uni hayratga solgan ma'lumotlar saboqdan so'ng, oilasida ham keng muhokama qililib, har bir savoliga ota-onasi aniq javob berishga harakat qilishadi. Chunki uning ota-onasi shifokor, akasi Sardor esa o'tgan yili kimyo fani bo'yicha viloyat olimpiadasida birinchi o'rinni egallagan. Islomjon ham kimyo fanini mukammal o'rganish harakatida. Laboratoriya ishlari uning qiziqishlarini yanada oshirar, o'zini mo'jizaviy olamdagidek his qilardi. Ustozi Ruxsora Ro'ziyeva o'quvchisining fanni chuqur egallashida qo'shimcha mashg'ulotlar olib boradi. Muallimadagi talabchanlik va ishonch uni qunt bilan ishlashga va izlanishga o'rgatdi.

Islomjon joriy yilda kimyo fani bo'yicha «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida 1-o'rinni oldi. Ayni chog'da u bellashuvning navbatdagi bosqichiga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda.

Sharq allomalari musiqa san'atiga yuqori baho berib, uning inson ruhiga ma'naviy quvvat bo'lishini alohida ta'kidlaganlar. Abu Nasr Farobiyning bu haqdagi fikrlari ham e'tiborlidir: «Musiqa ilmi shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi». Sharq mutafakkirlari musiqaning ajoyib xususiyatlarini haqida ko'plab hikmatli so'zlarni bizga ma'naviy meros sifatida qoldirganlar.

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabiga kirib borar ekanman, maskan ko'rinishidan dilim yayradi. Ikkinchi qavatga ko'tarilganda, Vatan haqidagi yoqimli qo'shiq qulog'imga chalindi. Musiqa xonasida 6-«B» sinf o'quvchilari zo'r qiziqish bilan qo'shiq ijro etar, fan o'qituvchisi Abdulaziz Abduqodirov esa fortepianoda ularga jo'r bo'lardi. Yo'lakda dars tugashini kutib turdim...

Muhammad Yusuf qalamiga mansub, Muhammad Otajonov musiqasi bilan aytiladigan «Ilm istang»

GAR QO'LINGDA BO'LSA HUNAR...

Bugungi yoshlarning bilim olishga, hunar o'rganishga ishtiyoqi baland. Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazi ham ayni damda hunar o'rganishga bel bog'lagan yoshlar bilan gavjum.

Biz olis tumandagi «Barkamol avlod» bolalar markazi direktori Oydin opa BAYAKESHOVA bilan bog'lanib, qoraqalpoq yoshlarining bo'sh vaqtlarini qanday tarzda o'tkazishayotgani, o'quvchilarning erishayotgan yutuqlari haqida quyidagilarni bilib oldik:

– Markazimizda «Texnik ijodkorlik», «Badiiy ijodiyot», «O'lkashunoslik va ekologiya» singari talaygina to'garaklar yoshlarimiz ixtiyorida.

O'quvchilarimiz erishgan

yutuqlar haqida gapiradigan

bo'lsak, joriy yilda yoshlarni

ekologiya va suvga, atrof-

muhitga bo'lgan e'tiborlarini

yanada oshirish maqsadida

o'tkazilgan «Bolalar va suv»

ekofestivalida 1-umumta'lim mak-

tabining 8-sinf o'quvchisi Jamshid

Yuldashev, 62-umumta'lim maktabi

o'quvchisi Mohinur Xallekova, 49-

umumta'lim maktabining 5-sinf

o'quvchisi Ixlos Matupayev, 16-umum-

ta'lim maktabidan Mashhura Alimovalardan

tashkil topgan «Jayhun» guruhi g'olib deb topildi.

«Foto rasmlar», «Karving ajoyibotlari» to'garaklarining o'quvchilari orasida

tashkil etilgan ko'rik-tanlovda «Foto rasmlar» yo'nalishi bo'yicha 1-umumta'lim

maktabi o'quvchisi Nodir Urinboyev, «Karving

ajoyibotlari» festivalida «Yosh pazanda»

to'garagi a'zosi 27-umumta'lim maktabi

o'quvchisi Shahlo Rozimova 1-o'rinni

egallab, Nukus shahrida o'tkazilgan

festivalda 3-o'rin bilan kifoyalanishdi.

«Samo bilan bo'ylashar varragim»

Respublika varraklar saylida

«Boshlang'ich texnik modellashirish»

to'garagi a'zolaridan 3 nafar

o'quvchimizning varraklari barchanikidan

yuksakka parvoz qilib, Nukus shahrida

o'tkazilgan tadbirda 2-o'ringa munosib topildi.

Markazimizning «Munchoqli bezak», «Yumshoq

o'yinchoq» to'garaklari rahbari Nargiza Yuldasheva, «Kompyuter grafikasi va

dizayni» to'garagi rahbari Mohira Reyimbayevlarning ham yosh avlodga

o'rgatayotgan hunarlarini tahsinga sazovor. «O'lkashunoslik va ekologiya»

yo'nalishining «Gulchilik» to'garagi rahbari Zamira Davlatbayeva to'garak a'zolari

bilan birgalikda Respublika miqyosida o'tkazilgan ko'rik-tanlovlarda qatnashib,

faxrli o'rinlarni egallaganlar.

Tririshqoq va izlanuvchan qoraqalpoq yoshlariga bo'sh vaqtlarini mazmunli

o'tkazishlari uchun «Barkamol avlod» bolalar markazida barcha sharoitlar

yaratilganidan quvondik. Bu yerdagi yoshlarning yana talaygina bellashuvlarda

qo'llari baland kelishiga ishonamiz. Zero, «Gar qo'lingda bo'lsa hunar, hunardan

rizqing unar», degan naql bejizga aytilmagan.

Ozoda TURSUNBOYEVA

QALB GAVHARI

qo'shig'ini sel bo'lib tingladim. Bunda ajdodlarimizning ibratli ishlari, bizga qoldirgan ma'naviy merosi kuylanardi.

– Men darslarimda Vatan, Istiqlol, do'stlik, ezgulik mavzusidagi qo'shiqlardan foydalanaman. O'z oldimga qo'ygan ulkan maqsadlarimdan biri, o'quvchilarni vatanparvarlik, milliylik ruhida tarbiyalashdir. Dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, AKT vositalarini qo'llashga harakat qilaman, – deydi Abdulaziz aka.

Bugun zamonaviy jihozlangan sinf xonalarida, malakali pedagoglar qo'lida ta'lim olayotgan o'quvchilarni ko'rib, kishining zavqi toshadi.

Dunyoda barcha millatlar o'rtasida qardoshlik tuyg'ularini uyg'ota oladigan san'atning mo'jaz turini o'rganish orqali umumta'lim maktabi o'quvchilarida yurtga sadoqat, ota-



ZURAYDA olgan surat

onaga hurmat, munosabatlarda o'zaro samimiylik xislatlarini shakllanishi, shubhasiz.


Nurbek QIDIRALIYEV

Lesson 35

DO YOU KNOW

HOW TO USE THE DICTIONARY?

(Lug'atdan foydalanishni bilasizmi?)



We know two words in English that are translated into Uzbek as «lug'at», they are dictionary and vocabulary. The first is a book where the list of words is given.

Vocabulary is a list of words of the text or of the textbook given just in the end.

Now let's talk about using a dictionary:

First, we have to know well the English alphabet so that to find easily the word which we want to find.

Second, we have to know the shortened forms of the names of parts of speech: *n=noun, a=adjective, v=verb, adv=adverb*, and so on.

Third, we may think a little and guess the meaning of some words with the help of prefixes and suffixes or in the given text.

WHICH LOCATION DO YOU CHOOSE?

(Qaysi manzilni tanlaysiz?)

1. This is a place where you deposit, withdraw money or cash a check. – **Bank**
2. You can buy books and magazines here. ...
3. If you want to cut hair, you may go here. ...
4. A place for ill people when they need an operation. ...
5. You can borrow or read books here. ...
6. A place where objects of historical, artistic or scientific interest are exhibited preserved or studied. ...
7. A place where drugs are sold. ...
8. Where children learn. ...
9. A large self-service store that sells food drinks and household items. ...
10. A place where live animals are kept, studied bred and exhibited to the public. ...

«LIKE» YOXUD «AS»?

Choose the correct answer.

She looks ... her mother.

He was appointed ... a teacher in high school.

She is ... angel.

My brother is not ... me.

Anvar qualified ... an engineer and worked in a famous company.

She can swim ... a fish.

It looks ... it's going to rain.

She did the work ... she promised.

Dinora SHAKIROVA tayyorladi

SOME OR ANY?

1. We need ... bananas.
2. You can't buy ... posters in this shop.
3. We haven't got ... oranges at the moment.
4. Peter has bought ... new books.
5. She always takes ... sugar with her coffee.
6. I have seen ... nice postcards in this souvenir shop.
7. There aren't ... folders in my bag.
8. I have ... magazines for you.
9. There are ... apples on the table.
10. Pam does not have ... pencils on her desk.

Umida UMAROVA

11-may 2015

«O'ZBEKISTON YOSHLARIGA QOYILMAN»

(Davomi. Boshi 1-betda)



Tadbirida tuman xalq ta'limi bo'limi xodimlari, «Bobur» mahalla faollari hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha koreys millati vakillari qatnashishdi.

Mazkur tadbirida o'quvchilar Koreya madaniyatini sahna ko'rinishlari orqali namoyish etishdi. Maktab direktori F. Pardayev anjuman davomida, yoshlarning bugungi kunda chet tillarini puxta o'rganishi va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishi jahon hamjamiyatida muhim o'rinni tutib, ertangi kunning yorug' kelajagidir, deya ta'kidladi.

O'quvchilarning sahnada ingliz va koreys tillarida ravon so'zlashishi, koreys milliy raqslarini mahorat bilan ijro etilishi ko'pchilikning olqishiga sazovor bo'ldi.

– O'zbekistonning har bir viloyatida, jumladan, Arnasoyda ham chet tillarga bo'lgan e'tiborning naqadar kuchli ekanligi meni hayratga soldi, – deydi o'quvchilarning xorijiy tillardagi namoyishidan zavqlangan Chem Me Go xonim. – Ayniqsa, o'quvchi-yoshlar tomonidan koreys millatining madaniyatini raqs hamda badiiy ko'rinishda maromiga yetkazib berishini tomosha qilarkanman, bu yerda yaratilgan shart-sharoit, yoshlarga bo'lgan e'tiborga havasim keldi.

Darhaqiqat, ko'pchilik e'tirof etganidek, tadbirning qiziqarli o'tishida til o'rganish to'garak rahbari Guldon Nizomovaning o'rni beqiyos bo'ldi.

Xurshida SULAYMONOVA

Bolalik dunyosi beg'ubor. Uni bahorga qiyoslash mumkin. Bolalikning har bir daqiqasi ana shu beg'uborlik va samimiyat bilan o'tadi. Ularning o'z tasavvur olami, dunyosiga nazar tashlar ekanmiz, ajib bir ezgu fazilatlarni, mo'jaz orzularga boy intilish va qiziqishlarida buyuk kelajak vorislarini ko'rganday bo'lamiz.

«SENDA GAPIM BOR. MAKTAB!»

Respublikamiz umumta'lim maktablarida o'quv yili yakuni, so'nggi chorak sinovlariga tayyorgarlik ketayotgan bir paytda, Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi 5-umumta'lim muassasasida maktabga tayyorlov guruhlarini rejadagi o'quv dasturlarini tugatish arafasida hisobot tadbirlarini boshlab yuborishdi.

Assalom, chamanim, bog'-u bo'stonim, Tillarda, dillarda bitmas dostonim. Yangi tong muborak, jonajon elim, Assalom, ey, ona O'zbekistonim!

«Senda gapim bor, maktab,

Quchog'ingga ol, maktab!» deb

nomlangan kecha Xondamir

va Munajatning samimiy

tilaklari bilan boshlandi.

Bolajonlardan Tolib,

Saodat, Jamshid

tayyorlov mash-

g'ulotlarida davlatimiz

ramzlari Madhiya,

Bayroq va Gerb haqida

o'rganganlarini aytishdi.

Yil fasllari ta'rifi Bunyod,

Asilbek, Yorqin hamda

Xoljo'ra tomonidan obrazli

namoyish etildi. Sanjar,

Sardor, Mohinur, Abdurahim,

Shohjahon, Ro'zmat, Davlat-

bek, Abdurahmon, Abdulboriy,

Azamat, Aziz esa matematik hisoblarni

sonlar o'yini orqali ijro etishdi.

«Kitob – bilim bulog'i», «Olim

bo'lsang, olam seniki», «Ko'z qo'rqqoq,

qo'l botir», «Oz so'zla, soz so'zla»...

Bolalar birin-ketin yod olgan

maqollaridan namunalar keltirishdi. «Mushugim», «Non yopganda» hamda «Sog'lom avlod» qo'shig'ini ustoz bilan birgalikda mazza qilib kuylashdi.

– Guruhdagi har bir bola – bir dunyo. Ularning dunyosiga kirib borish pedagogdan alohida mas'uliyat talab etadi. O'quvchilarning maktabga, ta'limga, o'zaro munosabatlarga moslashuviga jiddiy yondashaman, – deydi tayyorlov guruhi muallimasi Lutfiya Siddiqova.

Ha, ustozning so'zlari ayni haqiqat.



Tadbir davomida tarbiyalanuvchilarning ustozga bo'lgan mehri, muallimaning ular boshida parvonligini ko'rib, pedagog zimmasidagi mas'uliyatni uddalaganini his qildik.

OLMOS

Abdujabbor OBIDOV

DALA-DASHTDA KEZAMAN...

Men bo'riman, bo'riman,
Qo'y-qo'zining sho'riman.
Tun bo'lsa-da zim-ziyo,
Ko'zim ko'rar doimo.
Dala-dashtda kezaman,
Olisdan hid sezaman.
O'tloqda yurgan uloq,
Mendan qocholmas uzoq.
Hamla qilsam, yetaman,
Nimtalamay, yutaman.
Tishim o'tkir xanjardek,
Nafsim o'p-qon ajdardek...



BU MENING FE'LIMDA BOR...

Menga tekkan nom tulki,
Hech qachon bo'lmam kulki.
«Ayyor» derlar yo «makkor»,
Bu mening fe'lmda bor.
Tovuq bo'g'zidan tortib,
Yelkamga oson ortib.
Pastlab o'sgan yeruzum,
Qovunga bersin to'zim.
Barin birdek yeyman ko'p,
Sut bo'lsa ham derman, xo'p.
Sichqon-u yumronqoziq,
Quyondir shirin oziq.
Rosa quvlab tutaman,
Mayda chaynab yutaman.
O'rmonda katta hayvon,
Quvlasa bo'ri, arslon.
Daraxt kavagida jon,
Saqlash men uchun imkon...

SUV QADRI

Loyqalatib suv bag'r'in,
Tomchisin iflos qilmang.
Chiqindi tashlab tag'in,
Ariq bag'rini tilmang.

Suvning ajdodi bulut –
Qor bo'lib yoqqan toqqa.
U erib, yal-yal bo'lib,
Oqib kelgan bu yoqqa.



KITOB - XAZINA

O'zing mening baxtimsan,
Yurakdagi ahdimsan.
Kitob – bizning do'stimiz,
Qo'ldan ketmas taxtimiz.

Kitobda xazina bor,
O'qigan bo'lmaydi xor.
Ko'nglimizga malhamdir,
Bizga yor-u hamdamdir.

Sojida SHERNAYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Nishon
tumanidagi 11-umumta'lim
maktabining 7-«A» sinf
o'quvchisi



USTOZIMGA MING RAHMAT

Maktab degan dargoh aslida,
Ulug' erur, muqaddas oshyon.
Maktabsevar o'quvchilarga,
Yor bo'ladi doimo iymon.

Ota-ona va ustoz yuzi,
Yorug' bo'lar o'qisa farzand.
O'zbekim, deb bayrog'in tutib,
Osmonlarni quchsa gar dilband.

Hamma ustoz faxrlanadi,
Yuzlarida kulgi aks etar.
Ustozlarga baxtimiz sovg'a,
Shuning o'zi ularga yetar.

Sabog'iga haq so'ramaydi,
Hech narsani ta'ma qilmas ham.
Bilim olib, inson bo'lsam gar,
Minnatdorman, ustozlarimdan.

Abdumajid ABDURAHMONOV,
Surxondaryo viloyati,
Qumqo'rg'on tumanidagi
58-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi



Uzoq-uzoq yo'l bosib,
Dov-daraxtni qidirgan.
Jilg'a, soy, anhor bo'lib,
Bog'larga shoshib kelgan.

Nozima SHERBEKOVA,
Sirdaryo viloyati,
Boyovut tumanidagi
1-IDUMIning 9-sinf
o'quvchisi

BIROVNING HAQI...



Ta'til boshlanganiga ikki-uch kun o'tar-o'tmas, Yulduz opani malaka oshirishga yuborishdi. U odatiga ko'ra darsga erta yetib keldi. Xonaga kirar ekan, tanish chehralarni qidirdi. Ammo qo'shni maktablardagi hamkasblaridan hech kimni uchratmadi. Asta borib, o'rta qatordagi bo'sh joyga o'tirdi. Yo'qlamaga kirgan kotiba tinglovchilarga mashg'ulotlar jadvalini yozib olishlarini aytdi. Yulduz opa ruchkasini olish uchun sumkasini qaradi. Negadir, topolmadi. Biror kimdan so'rashga andisha qildi. Qayerda qoldirdi ekan? Tartib-intizomga o'rgangani bois, birinchi kundanoq ortda qolgisi kelmadi. Yonida o'tirgan yoshroq qizdan: «Ortiqcha ruchkangiz bormi?» deb ming xijolat bilan asta so'radi. «Bitta edi», deya javob berdi qiz. Sal nariroqda o'tirgan ayol uning ahvolini sezdi chog'i, sekingina ruchkasini uzatdi. Yulduz tezda dars jadvali, domla ma'ruzasining kerakli joylarini qayd etib oldi. Dars yakunida ruchkani egasiga qaytarib, minnatdorchilik bildirdi. Darslar tugab, maktabga qaytgach, Yulduz opa yana ishga sho'ng'ib ketdi... Bir kuni 5-sinfidagi Dildora ustozini hovlida ko'rib qolib, oldiga yugurib keldi. – Yulduz opa, anchadan beri o'qishdan qaytishingizni kutaman. Esingizdami, nazorat ishlarini topshirayotgan edik, darsingizda ruchkamiz yo'qligi bois, men bilan Zahroga o'zingiznikini berib turgandingiz. Buvim: «Birovdan omonat olgan narsani, albatta, qaytar», deb o'rgatganlar. Vaqtida qaytarmaganim uchun, uzr, – dedi boshini quyi egganicha. Yulduz tuyqus yodiga tushgan narsadan dili yashnab ketdi. – Qachondir yana ruchka kerak bo'lsa, yonimga kelaver, – deya o'quvchisini bag'riga bosdi. O'sha kuni osmonning o'pkasi to'lib, rosa yomg'ir quydi. Ko'cha bo'yab soyabon ostida borar ekan, muallima birovning haqidan qo'rqadigan, omonatni egasiga qaytarishni burch deb bilgan, murg'ak qalb egalari borligidan, ulardan biri shogirdi ekanligidan ich-ichidan suyundi...

Nodira NAZAROVA

Qadim-qadim zamonlarda kichkinagina elflar qishlog'i bo'lgan ekan. Ular o'zaro ahil, inoq yashar, doim o'yin-kulgi bilan ovora ekan. Lekin oralaridagi Quvnoqvoy ismli elf hech kimga qo'shilmas, doim bir o'zi yurar, ettirmoqchi bo'libdi. Xayrlashish oldidan Charli unga esdalik uchun yasagan sandiqchasini beribdi. Quvnoqvoy uzoq yo'l yurib, nihoyat, bir so'lim qishloqqa yetibdi. U yerda odamlar yashashar ekan. Mehmon elf Chaqqon ismli tikuvchilikiga joylashibdi. Xonadon egasidan kiyim-kechak, etik tikishni o'rganibdi. So'ng sayohatini davom ettirmoqchi bo'lib, yangi ustozidan ijozat so'rabdi. Chaqqon unga o'zi tikkan etikni sovg'a qilib, xayrlashibdi.

QUVNOQVOYNING SARGUZASHTLARI

(Ertak)



do'sti ham yo'q ekan. U olis yurtlarga sayohatga borishni orzu qilarkan. Kunlarning birida Quvnoqvoy sayohatga chiqibdi. Uzoq o'rmonlardan, baland tog'lardan o'tib, mitti odamchalar yashaydigan qishloqqa kelib qolibdi. Qishloq ahli tinmay mehnat qilar, charchash nima bilmasdi. U yerda Charli ismli qo'li gul hunarmand bo'lib, u juda chiroyli buyumlar yasay edi. Uning ishi Quvnoqvoyga ma'qul bo'lib, hunarmandga shogird tushibdi. Kunlar ketidan oylar o'tib, shogird ham ustozidan qolishmaydigan darajada hunarmand bo'lib yetishibdi. Yana sayohatini davom

uzoq yo'l bosib, nihoyat, o'zi tug'ilib o'sgan qishloqqa yetib kelibdi. Elfilar uni xursandchilik bilan kutib olishibdi. Quvnoqvoy ota-onasiga boshidan kechirgan sarguzashtlari, o'rgangan hunarlari haqida so'zlab beribdi va sandiqchani onasiga, etikni otasiga sovg'a qilibdi.

Shunday qilib, Quvnoqvoy olis yurtlarni kezib, el tanibdi, hunar o'rganibdi. Asosiysi esa, quvnoq elflar kabi do'stlar davrasiga qo'shiladigan bo'libdi.

Vazira MAMADALIYEVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq
qishloq xo'jalik kasb-hunar
kolleji o'quvchisi



Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi 41-umumta'lim maktabida 822 o'quvchi 54 nafar ustoz-murabbiylardan saboq olmoqdalar. Ta'lim muassasasida fan to'garaklari bilan bir qatorda sport to'garaklari faoliyati ham yo'lga qo'yilgan. Endilikda, o'quvchi-yoshlar bir necha sport turlari kabi kurash, badiiy gimnastika bilan ham shug'ullanmoqdalar.

NAFIS HARAKATLAR JILOS



Yaqinda maktabda badiiy gimnastika bo'yicha bo'lib o'tgan sport musobaqasida 10 nafar yosh sportchilar o'zaro bellashdilar. Musiqa ohangida tezlik bilan ko'priq hosil qilish, yakka holatdagi ijro, buyumlar bilan mashq bajarish kabi shartlar bo'yicha qizlar bor mahoratlari namoyish etishdi.

Ustozlardan Abdurasul Alqarov, Gulbahor Tolliboyeva, Orif Eshboyev hamda Gullola To'raqulova ularning har bir chiqishini munosib baholab borishdi.

Musobaqa nafasat bayramiga aylangan kunda yig'ilganlar nafis harakatlar jilosidan bahramand bo'lishdi. Ayniqsa, ishtirokchilardan Qutlug'nigor Sulaymonova, Charos Tangirova, Diyora Raimova va Jasmina Ilhomjonovaning ijrosi hay'at a'zolari tomonidan yuqori baholandi. Ahamiyatlisi, g'oliblardan Diyora va Jasmina 2-sinf o'quvchilari.

SINFDOSH

MUVAFFAQIYATI

Tanishib, tengdoshlaringiz Ulug'bek va Ravshan Ataboyevlar poytaxtimizdagi 164-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchilari.

Ular maktabda a'lo o'qishi bilan birga ikki yildirki, sportning kikkoksing turi bilan shug'ullanib kelishadi. Yosh bo'lishlariga qaramay, salmoqli natijalarni qo'lga kiritishga ham ulgurдилar. Milti yuragi g'ayrat-u shijoatga to'la bu bolalar o'tgan yili TDTU ochiq birinchiligida 45 kg. vazn toifasida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritishdi. Dastlab, ta'lim muassasasida o'tkazilgan musobaqalarda toblangan yosh sportchilar Samarqand shahrida tashkillashtirilgan musobaqada Ulug'bek 1-, Ravshan 2-o'ringa loyiq topildi.

Musobaqalarda tajribasi oshib borayotgan Ataboyevlardan murabbiylarning ham umidi katta.

Manzura UBAYDULLAYEVA



Mashg'ulotlar musobaqalardagi kabi hayajonli va qizg'in o'tadi.

SULOLANING UCHINCHI CHEMAPIONI

Poytaxtimizdagi 440-maktabgacha ta'lim muassasasida shaxmat bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Unda Toshkent shahridagi 11 ta tumandan bog'cha tarbiyalanuvchilari qatnashdi.



Ular bor zehn va aqlini ishga solib, g'oliblik uchun kuch sinashishdi. Birinchi tur va yarim finaldan o'tgan bolalar final bosqichiga chiqishdi. Nihoyat, Sergeli tumanidagi 305-MTMning 5 yoshli tarbiyalanuvchisi Humoyun Sindorov akalarining izidan borib, chempion bo'ldi. 2-o'rinni Yunusobod tumanidagi 424-bog'chadan Azimjon To'layev, 3-o'rinni Shayxontohur tumanidagi 243-bog'cha tarbiyalanuvchisi Alixon Avaxonovlar olishdi.

Qizlar o'rtasida 1-o'rinni Yunusobod tumanidagi 304-bog'cha tarbiyalanuvchisi Rofiya Sultonqulova, 2-o'rinni Shayxontohur tumanidagi 243-bog'chadan Muyassar Mirzaahmedova, 3-o'rinni Olmazor tumanidagi 20-bog'cha tarbiyalanuvchisi Zahro Ortiqova oldi.

Barcha g'oliblarga diplom va sovg'alar topshirildi.

Shahnoza KARIMOVA

G'ALABA KALITI

Shahnoza Samadova - Guliston shahridagi 2-akademik litseyi o'quvchisi. 13 yoshidan sportning taekvando (ITF) turi bilan shug'ullanib kelmoqda. Hozirda 1-DAN qbra belbog' sohibasi.



Shahnoza shu kunga qadar ko'plab g'alabalarni qo'lga kiritdi. Joriy yilda sportchi Toshkent viloyatining Bekobod shahrida O'zbekiston Respublikasi Taekvando (ITF) milliy assotsiatsiyasi tomonidan Navro'z bayramiga bag'ishlab o'tkazilgan shahar ochiq birinchiligida 1-o'rin sohibi bo'ldi. 2015-yil Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan tashkil etilgan taekvando (ITF) bo'yicha yoshlar va kattalar o'rtasidagi O'zbekiston chempionatida 3-darajali diplom bilan taqdirlandi.

Shuningdek, Shahnoza navbatdagi O'zbekiston chempionatida ham 1-o'rinni egalladi. Bundan tashqari, sportchi o'tgan davr mobaynida klublararo viloyat birinchiligi, ochiq chempionat hamda jamoaviy O'zbekiston kubogi bellashuvida yetakchi o'rinlarni egalladi.

Shahnoza Samadova nafaqat taekvando, balki o'zbek jang san'ati, Jet Kun Do bo'yicha musobaqalarda ham faol ishtirok etib, federatsiyaning diplom va faxriy yorliqlari bilan taqdirlandi. Uning tirishqoqligi, intiluvchanligi vaqtlar kelib, xalqaro musobaqalarda g'oliblar safidan o'rin olishiga umid uyg'otadi.

Ulug'bek SAIDOV

BILIMDON-U QUVNOQLAR, TOPING, SIZGA JUMBOQLAR!

Dilshod RAJAB

A Agar bilsang zotini,
Polvon, derlar otini.
Afzal ko'rar har nedan,
Asalning xush totini.



D Insonga do'st jondor u,
Dengizda zo'r dastyor u.
Sezsa biror xavf-xatar,
Yordamga shay, tayyor u.



F O'zi ulkan jonivor,
Favvoraday suv sochar.
Faqat bitta «ayb»i bor,
Mitti sichqondan qochar.



CH Doim uyga bir nima,
Tashigani, tashigan.
Yaxshiyam mittigina,
Filday emas, kichkina.



J Chiqmasa ham narvonga,
Yetadi bo'yi tomga.
Bo'yni uzunki biram,
Xuddi ko'tarma kran.



K Sayrog'idan dil yayrar,
O'z nomin aytib sayrar.



L Uzun tumshuq siyoqli,
Qo'sh kaltakday oyoqli.
Egnida oq xalati,
Tugmasi yo'q, g'alati.



M Muloyim-u, yuvosh u,
Yurar go'yo tortinib.
Lekin rosa berar u,
Sichqonlarning dodini.



N Nozikkina jondir u,
Dema, o'ch-ginasi bor.
Yonida emas uning,
Nomida ninasi bor.



O Daraxtda chopib yurar,
Yemishin topib yurar.
Xush ko'rar u yong'oqni,
Toping, endi jumboqni.



S Toshday qattiq tuyog'i,
Sut-qaymoqning bulog'i.
O'ynab yurar yonida,
Erkatoyi – buzog'i.



X Hammadan erta turib,
Xabar berar qichqirib.
Der: «Tong otdi,
shodlaning,
O'qish, ishga otlaning»



G' Kekkayganday turadi,
Kibr bilan yuradi.
Teskari o'qib «Zog'»ni,
Toping, bu maqtanchoqni.



I Goh cho'zilar arqonday,
Goh bo'lar kulcha nonday.
Lekin ba'zan qahri bor,
Ehtiyot bo'l, zahri bor.



NG Og'zini ochganda lang,
Ko'p baliqning holi tang.



8

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

11-may 2015

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Nurbek
QIDIRALIYEV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel/faks: 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 47873
Buyurtma – S 2876